

ZAMONAVIY O‘ZBEK HIKOYACHILIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Istamova Shoxida Maxsudovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining badiiy-estetik xususiyatlari, janr doirasida yuzaga kelgan yangilanishlar, mavzu va g‘oyaviy izlanishlar, tasvir uslublaridagi o‘ziga xosliklar tahlil qilinadi. Maqolada hikoya janrining psixologik, falsafiy, ijtimoiy yo‘nalishlarda boyib borayotgani, xalqona tafakkur va modern estetikani sintez qilgan yangi shakllar vujudga kelgani ilmiy-nazariy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy tafakkur, hikoya janri, obrazlilik, psixologizm, uslub, mualliflik pozitsiyasi, ijtimoiy muammo, estetik yangilik

ХАРАКТЕРИСТИКИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНСКОГО РАССКАЗА

Истамова Шохиди Максудовна

Бухарский государственный педагогический институт

Профессор кафедры узбекского языка и литературы

Аннотация. В статье анализируются художественно-эстетические особенности современного узбекского сказительства, новации внутри жанра, тематические и идейные исследования, особенности приемов изображения. В статье подчеркивается обогащение повествовательного жанра в психологическом, философском и социальном направлениях, возникновение новых форм, синтезирующих народное мышление и современную эстетику на научно-теоретической основе.

Ключевые слова: художественное мышление, жанр рассказа, образность, психологизм, стиль, авторская позиция, социальная проблематика, эстетическое новшество

CHARACTERISTICS OF A MODERN UZBEKISTAN STORY

Istamova Shohida Maksudovna

Annotation. This article analyzes the artistic and aesthetic characteristics of modern Uzbek storytelling, innovations within the genre, thematic and ideological research, and peculiarities in the methods of depiction. The article highlights the enrichment of the narrative genre in psychological, philosophical, and social directions, and the emergence of new forms that synthesize folk thinking and modern aesthetics on a scientific and theoretical basis.

Keywords: literary thinking, short story genre, imagery, psychologism, style, authorial perspective, social issues, aesthetic innovation

O'zbek adabiyotida hikoya janri XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan shakllanib, XX asr o'rtalarida yuqori rivojlanish darajasiga yetdi. Ayniqsa, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Oybek, O'tkir Hoshimov singari adiblar bu janrga katta hissa qo'shgan bo'lsa, mustaqillik yillarida hikoyachilik yangi mazmun va shakl jihatidan sezilarli darajada yangilandi.

Hikoya janrida barakali ijod etgan yozuvchilar, ularning asarlari, o'ziga xos uslub va badiiy mushohada masalalari O. Sharafiddinov, M. Qo'shjonov, B. Nazarov, N. Karimov, A. Rasulov, U. Normatov. H. Karimov, Q. Yo'ldoshev, D.Quronov, K. Hamroyev, B. Karimov, A. Ulug'ov, U. Hamdamov, B. Shukurova kabi adabiyotshunos olimlar tomonidan o'rganilgan.

Adabiyotshunos olim K. Hamroyev "Hikoya janrida badiiy parallelizm" nomli maqolasida Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi psixologik, ko'p a'zoli, obrazli, inkor parallelizm shakllarini o'rganib, o'rinli va asosli ilmiy xulosalar bildiradi.

B. Karimov "Ruhiyat alifbosi" adabiy-ilmiy maqolalar to'plamining nasrga bag'ishlangan faslida "o'zbek nasridagi "modernizm" noan'anaviy ifoda uslubida, voqelikni yangicha badiiy talqin etishda, shuningdek, shakliy o'zgarishlarda ko'zga tashlanishi" va "o'zbek nasridagi yangilik talqin qilinayotgan maydon ham adabiyotimizdagi aynan shu badiiy-estetik hodisa bilan bog'liq" ekanligini ta'kidlaydi. G.N. Tavaldiyeva, Sh. Doniyorova kabi olimlar Shukur

Xolmirzayevning hikoyachilikdagi o'ziga xos tasvir uslubi, voqelikni badiiy idrok etish tamoyillari haqida ilmiy xulosalar berganlar.

Istiqlol davri adabiyotida jamiyat, inson va ruhiyat mavzulariga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgardi. Realistik yondashuv o'rnini psixologik tasvir, ichki monolog, falsafiy umumlashtirishlar, estetik tafakkur orqali insoniylik mohiyatini ochishga qaratilgan badiiy izlanishlar egallay boshladi. Badiiy ijodda siyosiy mavzular bir muncha torayib, ijtimoiy munosabatlar haqidagi mavzularda kengroq ijod qilina boshlandi. Yozuvchilar erkinlik, shaxsiylik, falsafiy mushohada, ruhiy kechinmalar, jamiyatdagi murakkab ziddiyatlar, qadriyatlar inqirozi kabi mavzularga murojaat qildilar. Psixologizm chuqurlashdi, syujetdan ko'ra ichki holat, ramziy va modernistik ifodalar ustuvor bo'ldi. Bu jarayonda Xayriddin Sultonov, Shukur Xolmirzayev, Erkin A'zam, Nazar Eshonqul singari yozuvchilarning ijodi o'zbek hikoyachiligiga yangi badiiy nafas olib kirdi.

Shukur Xolmirzayev, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Sobir O'nar, Nazar Eshonqul, Abduqayum Yo'ldosh, Ulug'bek Hamdam kabi ijodkorlar yaratgan asarlari bilan hikoyachilik yangi bosqichga ko'tarildi. Shukur Xolmirzayev asarlarida oddiy insonning ruhiy dunyosi, milliy-ma'naviy o'ziga xoslik, Erkin A'zamda yolg'izlik, tanho qalb, Nazar Eshonqulda esa falsafiy ramzlar va modernistik yondashuvlar kuchli ifodalandi.

Modern adabiyot hikoyalarini o'rganar ekanmiz, har bir insonni alohida bir olam sifatida tasvirlashga urinilganiga amin bo'lamiz. Yozuvchilar hayot haqiqatini anglab, o'z ruhiyatini taftish qiladigan qahramonlar yaratish orqali badiiy olamni haqiqatga aylantirmoqdalar. Bunday g'oyalarni Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Ulug'bek Hamdam yaratgan hikoyalar orqali kuzatish mumkin.

Istiqlol davri o'zbek hikoyachiligi an'anaviy realistik va noan'anaviy modernistik yo'nalishda rivojlanayotganini kuzatish mumkin. Zamonaviy o'zbek yozuvchilari ham ustoz o'zbek hikoyanavislarining, shu bilan bir qatorda jahon klassik hikoyachiligi ijodiy tajribalari, ramziy-majoziy obrazlar va uslub jihatdan

g'arb adabiyotiga xos modernistik shakl va usullardan keng foydalanib, hikoyachilikda yangicha badiiy-estetik yangilanish yo'lida ijod qildilar. Ularda qahramon ruhiyatiga yanada chuqur kirish, yangicha ramziy-psixologik timsollar yaratish xos xususiyatlik kasb etdi.

Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida quyidagi asosiy tendensiyalar kuzatildi:

Psixologizmning kuchayishi. Qahramonlarning tashqi harakatidan ko'ra, ichki holati, kechinmalari, ruhiy iztiroblari tasvirlanadi. Erkin A'zam hikoyalaridagi yolg'izlik, begonalik, iztirob ayni shu tendensiyaning mahsuli hisoblanadi.

Simvolizm va ramziy obrazlar. Oddiy voqealar orqali murakkab hayotiy haqiqatlar aks ettiriladi. Nazar Eshonqul hikoyalarida ramzlar, ko'p ma'noli belgilar orqali jamiyat va zamon muammolari badiiy talqin etiladi.

Peyzaj vositasining poetik funksiyasi. Tabiat manzaralari orqali qahramonning ichki dunyosi, ruhiy holati aks ettiriladi. Bu ayniqsa, Shukur Xolmirzayev ijodida aniq ko'zga tashlanadi.

Milliy ruh va tarixiy-estetik ongning uyg'unligi. Hikoyalarda global muammolar milliy qadriyatlar, insoniylik, vijdon va ruhiy uyg'unlik bilan bog'langan holda tasvirlanadi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida xalqona ifoda, oddiy odam taqdiri, ichki erkinlik va ruhiy uyg'unish asosiy g'oya sifatida ilgari suriladi.

Erkin A'zam shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar, ma'naviy inqirozlar, yolg'izlik, tanho qalb kechinmalarini yoritgan yozuvchidir.

Nazar Eshonqul esa badiiy tafakkurda yangilik yaratgan, hikoyalarida simvolik ifoda, murakkab ichki kechinmalar va modernistik yondashuvga urg'u bergan adibir.

Shukur Xolmirzayev, Erkin A'zam, Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam singari yozuvchilar bu davr hodisalarini ichdan, xalq ruhiyati va kechinmalari bilan uyg'un holda tasvirlashga erishdilar. Natijada "o'tish davri" nasrda faqat tarixiy voqelik emas, balki xalqning ma'naviy holati, ruhiy silsilalari, o'zlikni anglash yo'lidagi iztirobli izlanishlar timsolida gavdalandi.

XX asrning oxiri XXI asr boshlaridagi o'tish davri adabiyoti odatdagi idealizmdan yiroqlashib, realistik, ko'pincha dramatik va psixologik yo'sinda shakllandi. Bu nasrda hayot haqiqatlari, xalqning ichki ruhiy kechinmalari, qadriyatlar inqirozi va ularni saqlab qolish zarurati markaziy mavzuga aylandi. Adiblar o'z asarlarida shunchaki ijtimoiy voqealarni emas, balki ularning inson qalbida qoldirgan izini, jamiyatda yuzaga kelgan bo'shliq va ruhiy tanglikni yoritishga intildilar.

O'tish davri faqat bizning jamiyatimiz uchungina xos bo'lib qolmay, barcha postsovet mamlakatlar uchun umumiy ijtimoiy-madaniy hodisadir. Bu davr o'zbek nasrida nafaqat yangi mazmun va g'oyalarni olib kirdi, balki badiiy ifoda vositalari, uslubiy yondashuvlar hamda yozuvchi shaxsining jamiyatdagi rolini yangicha talqin etishga sabab bo'ldi. Bu davr nasri o'zining qiziqarli tajribalari va teran psixologizmi bilan o'zbek adabiyotining muhim bosqichlaridan biriga aylandi.

ADABIYOTLAR:

1. K.Hamroyev. Hikoya janrida badiiy parallelizm./ "Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining yangilanish tamoyillari" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Toshkent, 2016.
2. B.Shukurova. Hikoyada roviy obrazining xususiyatlari.// AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE ISSN: 2996-5306 (online) | ResearchBib (IF) = 9.674 IMPACT FACTOR Volume-2| Issue-4| 2024 Published: |30-11-2024| . <https://doi.org/10.5281/zenodo.14172887> .
3. Истамова Шохида Махсудовна. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish (kahoot, educaplay kabi plotformalar misolida)./ <https://wosjournals.com/index.php/ptj/article/view/584/862>
4. Истамова Шохида Махсудовна. Халқ оғзаки ижоди ва ёзма адабиёт намуналарида туш мотивларидан фойдаланишнинг ўзига хослиги./ IQRO JURNALI – volume 14, issue 02, 2025. ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) –7,245, SJIF–5,431. <https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/77056>.
5. Истамова Шохида Махсудовна. Тоҳир Малик асарларида туш ва унинг талқини масаласига бир назар./ МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҲЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ Илимий-методикалық журнал. 2/2-сан 2025 март – апрель.

4. Istamova Shoxida Maxsudovna. MUSTAQIL ISHLAR - ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI./ PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI. o4, Fevral, 2025.
<https://www.wosjournals.com/index.php/ptj/article/view/1627/1854>